


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**60112700-Maxsus pedagogika: logopediya
bakalavriat ta'lim yo'naliشining**

MALAKA TALABLARI



Toshkent-2023

ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023-yil «✓» 08 dagi 344 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda
Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilar takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar ta’lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

1. 60112700-Maxsus pedagogika: logopediya bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiyl tavsifi.....	4
1.1. Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1. 60112700-Maxsus pedagogika: logopediya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2. 60112700-Maxsus pedagogika: logopediya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1. 60112700-Maxsus pedagogika: logopediya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2. 60112700-Maxsus pedagogika: logopediya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari	5
1.2.3. 60112700-Maxsus pedagogika: logopediya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari	6
1.2.4. 60112700-Maxsus pedagogika: logopediya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy vazifalari.	6
2. 60112700-Maxsus pedagogika: logopediya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	8
2.1. Umumi kompetensiyalar.....	8
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	8
2.3. Umumiyl va kasbiy kompetensiyalarini egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	9
2.4. Kvalifikatsiya	10
Bibliografik ma’lumotlar.....	11
Kelishuv varag‘i	12

1. 60112700-Maxsus pedagogika: logopediya bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiyl tavsifi

60112700-Maxsus pedagogika: logopediya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash milliy malaka ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilari talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi.

Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’oriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi.

1.1.1. 60112700-Maxsus pedagogika: logopediya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 60112700-Maxsus pedagogika: logopediya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotli bakalavrular tayyorlash o‘quv reja va fan dasturlarining o‘zlashtirilishini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha pedagogika sohasida kadr tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalar uchun talablar majmuuni ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- 60112700-Maxsus pedagogika: logopediya ta’lim yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o‘quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas’ul oliy ta’lim muassasalarining professor - o‘qituvchilari;
- ta’lim yo‘nalishining o‘quv reja va fan dasturlarini o‘zlashtirish bo‘yicha o‘quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi talabalari;
- o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari);
- bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya va imtihon komissiyalari;
- oliy ta’lim muassasasini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;
- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilotlar;

1.2. 60112700-Maxsus pedagogika: logopediya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60112700-Maxsus pedagogika: logopediya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari:

- “Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatori XALIKK-2020)“ga muvofiq umumiyl o‘rta ta’lim maktablari, maktabgacha ta’lim

tashkilotlari, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida (maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktablar, maktab-internatlar) (keyingi o'rnlarda - ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari) maxsus pedagog (o'qituvchi-logoped) lavozimida o'rnatilgan tartibda pedagogik faoliyat olib borish;

- inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilgan umumta'lim muassasalariga (maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktablar, maktab-internatlar) (keyingi o'rnlarda - inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilgan ta'lim muassasalari) tyutor (yordamchi pedagog xodim) sifatida pedagogik faoliyat olib borish;
- sog'liqni saqlash tizimiga qarashli tibbiyot tashkilotlarda logoped va unga tenglashtirilgan lavozimlarda korreksion-pedagogik faoliyat olib borish;
- tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarda hamda mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish;
- ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari, inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilgan ta'lim muassasalari direktori kasb standartiga muvofiq ta'lim muassasasini boshqarish;
- umumi o'rta ta'lim maktabi, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari, professional ta'lim muassasalari, oliy ta'lim muassasalarida laborant, kabinet mudiri sifatida faoliyat yuritish kabi kompleks masalalarni majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60112700-Maxsus pedagogika: logopediya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

- umumi o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida;
- Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi idoralarda;
- tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarda;
- davlat boshqaruvi organlari, o'rta, o'rta maxsus kasbiy ta'limning davlat va nodavlat muassasalarida;

60112700-Maxsus pedagogika: logopediya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari o'qishni tamomlagandan so'ng, maktabgacha ta'lim tashkiloti, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida maxsus pedagog, o'qituvchi-logoped, tarbiyachi; inklyuziv ta'lim tizimi joriy yetilgan umumta'lim muassasalariga tyutor (yordamchi pedagog xodim); sog'liqni saqlash tizimiga qarashli tibbiyot tashkilotlarda o'qituvchi-defektolog, o'qituvchi-logoped, umumi o'rta ta'lim maktablari, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida maxsus pedagog (o'qituvchi-logoped), hamda unga tenglashtirilgan lavozimlarda ishlash, tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarda, maxsus pedagogika muammolari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda, ishlab chiqarish korxonalari laboratoriyalarda kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. 60112700-Maxsus pedagogika: logopediya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrлar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *pedagogik;*
- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ma’naviy-ma’rifiy;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*

1.2.4. 60112700-Maxsus pedagogika: logopediya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60112700-Maxsus pedagogika: logopediya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob’ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Pedagogik faoliyatida:

- **o‘quv jarayonini rejalashtirish:** DTS va O‘D larining maqsadlariga muvofiq o‘quv reja ishlab chiqish, o‘quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o‘quv dasturlarini moslashtirish, darsning aniq maqsad va natijalariga ko‘ra dars rejasini ishlab chiqish, differential yondashuv asosida dars shakllari va usullarini rejalashtirish, o‘quv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtirish;

- **ta’lim samaradorligini ta’minalash:** dars maqsadlariga ko‘ra o‘quvchilar imkoniyatidan kelib chiqib vazifalarni belgilash, dars mavzusiga mos namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish, darsda vaqt taqsimotini to‘g‘ri rejalashtirish, ta’lim jarayonida AKTdan unumli foydalanish, o‘quvchilarning o‘zlashtirish natijalariga ko‘ra darsni tashkil etish va ta’lim berishdagi yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish, o‘quvchilarning ta’limiy maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan o‘qitish usullari va yondashuvlarni tanlash, o‘qitishning faol usullaridan foydalanish, o‘quvchilarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan usullardan foydalanish, o‘quvchilarning jamoaviy va loyixaviy ishlarini tashkil etisho‘z-o‘zini nazarat qilish ko‘nikmalaridan foydalanish, o‘quvchilarga differential yordam berish, nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minalash, o‘quvchilarni mustaqil fikrlash imkoniyatini yaratish, darsda motivatsiyaga erishish, sinfda samarali muloqotga erishish;

- **o‘zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish:** ta’lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta’lim natijalarini diagnostika qilish uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta’lim natijalarini taxlil qilish, dars rejasi va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanish, baholash mezonlarini bilishi va amalda qo‘llay olishi, mavjud muammolarni aniqlay olishi va taxlil qilish

- **tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish:** tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, interaktiv shakl va usullarini mashg‘ulot hamda sinfdan tashqari ishlarda qo‘llash, tarbiyaviy ishlarda o‘quvchilarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga olishi, ta’lim muassasasining ustavi va ichki tartib qoidalariga muvofiq o‘quvchilar uchun aniq odob-axloq qoidalarini o‘rnatish, ijtimoiy sog‘lom muxitni yarata olish, o‘quvchilarda kognitiv faollik, mustaqillik,

tashabbuskorlik, ijodkorlik fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish

- **xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash:** O'quvchilar orasida o'zaro hurmat muhitini yaratish, o'quvchilarga sinf hayotida teng imkoniyatlar yaratса, nizoli vaziyatlarda optimal yechimli qaror chiqara olishi, o'quvchilar bilan individual ishlar olib borishi, zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishlashga yordam bera olish;

- **o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish:** muntazam malaka oshirish kursaridan o'tish, fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash, kasbiy faoliyat yuzasidan seminar va treninglarda ishtirok etish hamda tashkil etish, o'zaro darslarda qatnashish, darslarni tahlil qilish, ochiq darslar o'tkazish, kasbiy faoliyatda kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish;

- **hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslari) bilan hamkorlik o'rnatish:** o'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) ta'lim jarayoniga maktab hayotiga jalg qilish, o'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) o'quvchilarni rivojlanishi va ta'lim muhiti to'g'risida qaror qabul qilishda ishtirok etishga jalg etish, tarbiyaviy muammolarni hal qilishda va o'quvchilarni hayotga tayyorlashda boshqa pedagogik xodimlar va mutaxassislar, jamoat tashkilotlari va bo'limlari (Yoshlar ittifoqi) bilan hamkorlik qilish;

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- maxsus pedagogika sohasida ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishidagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;

- maxsus pedagogika fanlariga doir internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish hamda amaliyotga bevosita tadbiq etish;

- maxsus pedagogika (logopediya) ta'lim yo'nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;

- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

- ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;

- maxsus pedagogikaga doir tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:

- o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;

- globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarni olib borish;

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:

- pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

- jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

- fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda to‘g‘ri qaror qabul qilish;
- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natjalarini baholash qobiliyatlariga ega bo‘lish.

2. 60112700-Maxsus pedagogika: logopediya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- shaxsiy o‘sishga intilishni shakllantirish va ob’ektiv baholash, shuningdek, ta’lim oluvchilarining intellektual rivojlanish darajasini oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal etishda umumkasbiy va mutaxassislik fanlarning asosiy qoidalari va metodlaridan samarali foydalana olish;
- ona tilida o‘z fikrlarini tizimli va erkin bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishslash, ommaviy nutq so‘zlash uchun ona tili va chet tillaridan birida yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini egallaganlik;
- axborotni olish, saralash, saqlash va qayta ishslash metod, usul va vositalaridan foydalanish va mediasavodxonlik; global kompyuter tarmoqlar bilan ishslash ko‘nikmalariga egalik.
- ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, ilmiy bilish yutuqlariga erishish tamoyillarini anglash;
- gigiena, mehnat muhofazasi va tashqi ta’sirlardan himoya qilish qoidalari talablariga muvofiq, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishga qobiliyatatlilik.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- o‘quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish;
- Turli yosh davrlarida insonning xulq-atvori va faoliyatini boshqarishning o‘ziga xosliklari, psixik va psixofiziologik rivojlanishning maxsus qonuniyatlari hamda individual o‘ziga xosliklarini hisobga olish vositalaridan foydalanish qobiliyatiga egalik; ota-onalar (yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar) bilan munosabatga kirisha olish;
- me’yoriy-xuquqiy xujjalarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- kasbiy sohadagi muammolarni aniqlash va ularni hal qilishda samarali texnologiyalarni qo‘llashga;
- ta’lim jarayoni sub’ektlarining birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyati va shaxslararo o‘zaro harakatini tashkil etish usullarini egallaganlik;
- kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo bog‘liqlikni amalga oshirish, shuningdek, nazariya va amaliyot uyg‘unligini, uzviylik va uzluksizligini ta’minlash;
- tanqidiy fikrlash metodikasini o‘zlashtirganlik;
- ta’lim jarayonida texnika xavfsizligini ta’minlash;

- inklyuziv ta'limga qadriyatli munosabatni shakllantirish; uzoq vaqt davolanishga muhtoj o'quvchilar bilan ishlash texnologiyasiga ega bo'lishi;

- ta'lim oluvchilarga o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanlikka doir kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga imkon beradigan natijaviylik va mobillikka yo'naltirilgan o'qitishga qobiliyatlilik.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarini o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tashi hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, qo'shimcha kvalifikatsiya olishga xizmat qiladigan, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

Kunduzgi ta'lim shaklida taxsil oluvchi talabalarning 4+2 tartibdagi malakaviy amaliyoti 3-8 semestrlarda amalga oshiriladi. Bunda xafthaning 4 kunida nazariy va amaliy ta'lim, 2 kunda amaliyot o'tkaziladi.

2.3.1. 60112700-Maxsus pedagogika (logopediya) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha o'quv yuklamalari:

O'quv fanlari bloklari va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Kunduzgi ta'lim shaklida ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4320	144
Tanlov fanlari	1800	60
Malakaviy amaliyot	1080	36
jami	7200	240

**2.3.2. 60112700-Maxsus pedagogika (logopediya) bakalavriat ta'lif yo'naliishi
bo'yicha ta'lif dasturining tuzilishi:**

Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklama hajmi (soatda)	Umumiy yuklama hajmi (kredit)	seme stri
	Majburiy blok	4320	144 ✓	
PSY108	Umumiyl psixologiya	300	10	1,2
O'EYT104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
MSVAX104	Mediasavodxonlik va axborot madaniyati	150	5	2
O'RT104	Amaliy o'zbek (rus) tili.	180	6	2
FALMAD104	Falsafa	120	4	1
FC110	Mutaxassislikka kirish	180	5	1
NOR105	Nutqning ontogenetika rivojlanishi	150	6	2
OAVF104	Odam anatomiyasи va fiziologiyasi	180	6	2
MaxPedKA108	Maxsus pedagogikaning klinik asoslari	300	10	1,2
PED208	Umumiy pedagogika	240	8	3,4
InkT.GP304	Inklyuziv ta'lif. Gospital pedagogika	240	8	3,4
DIN204	Dinshunoslik	120	4	3
Logo212	Logopediya I	180	6	2
MaxPedMPs210	Maxsus pedagogika va maxsus psixologiya	330	11	3,4
LogoM308	Logopediya II	300	10	5,6
LogPPKM308	Logopsixologiya va psixologik korreksiya metodlari	270	9	5,6
PedPsixD306	Pedagogik-psixologik diagnostika	180	6	5
RNBBBKLIM306	Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning logopedik reabelitatsiyasi I	120	4	6
UTTVZY405	Uzluksiz ta'lidagi tendensiyalar va zamonaviy yondashuvlar	150	5	8
LogoM405	Logopediya III	120	4	7
RNBBBKLIM306	Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning logopedik reabelitatsiyasi II	120	4	7
LogoTexM408	Logopedik texnologiya	120	4	7
LMTERM404	Logopedik mashg'ulotlarni rejalashtirish va tashkil etish	150	5	7
	Tanlov blok	1800	60	3-8
	Malakaviy amaliyot	1080	36	2-8
	JAMI	7200	240	

2.4. Kvalifikatsiya:

Pedagog. Maxsus pedagog (o'qituvchi-logoped).



Bibliografik ma'lumotlar

UDK 371.927

Tayanch so'zlar:

Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv reja, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat turi, amaliyot, amaliyot ob'ekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, korreksiya, nutq buzilishlari, kompensatsiya, reabilitatsiya, abilitatsiya, imkoniyatlari cheklangan bolalar, jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar.

Kelishuv varag'i

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari




KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi
direktor Sh.Yakubov



O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi
Respublika ta'lim markazi
direktori Sh.Sattorov



Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektori Sh.Sharipov



Guliston davlat pedagogika instituti
rektori v.b. A.Qalandarov



Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
60112700-Maxsus pedagogika: logopediya ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka
talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliv ta'lim
muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida
KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“26” iyul 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi direktori Sh.Sattarov, Jizzax davlat pedagogika universiteti rektori prof. Sh.Sharipov, Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori prof. A.Kirgizbaev birgalikda TDPUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60112700-Maxsus pedagogika: logopediya bakalavriat ta'lim yo'nalishi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, 2022-yil 21 iyundai “Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-289-son hamda “Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-290-son Qarorlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 27-oktabrda hisobga olingan(hisob raqami 43) O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim vazirining 2021-il 19-oktabrdagi “«Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar» O'zbekiston Respublikasining Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida”gi 35-2021-son buyrug'i hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi
Respublika ta'lim markazi direktori**

Sh.Sattarov

**Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektori, professor**

Sh.Sharipov

**Toshkent davlat pedagogika universiteti
rektori, professor**

A.Kirgizbayev

